

## **TEZKOR QAROR QABUL QILISH- HOZIRGI ZAMON MUHIM TALABI**

**Xabibullayeva Saodatoy Soyibjon qizi**

Andijon davlat Pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti

Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi

2 - bosqich 203 - guruh talabasi

**Abdulmadjidova Mahdiyona Dilmurodjon qiz**

Ilmiy rahbar: ADPI Pedagogika Psixologiya kafedrasи o‘qituvchisi

“Xususiy tashabbuslarni yanada kengaytirish, ularga yangi istiqbollarni ochish maqsadida endi “qo‘l boshqaruvi”dan aniq natijaga ishlaydigan tizimli boshqaruvga o‘tish vaqtি keldi.”

**Prezident Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning**

**Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqoladan maqsad shundan kelib chiqadiki, hozirgi kunda yoshlаримизни keng doirada fikrlashini qanday qilib muammoga to‘gri yechim topa olishiga yordam beruvchi kichik bir vosita hisoblanadi. Bundan diqqat, sezgi, xotira, xayol, tafakkur kabi psixologik bilish jarayonlariga katta e’tibor qaratilgan bo‘lishi kerak. Shu jarayonlar orqali har bir shaxs dunyonи yanada teranroq his eta boshlaydi. Keyin esa odamlarning yoshi, ilm saviyasi, mavqeи, kasbi va egallab turgan lavozimiga qarab muammolarni yechish bosqichi turli uslubda o‘tishi va bunda turlichа tafakkur strategiyalari ishlab chiqishi mumkin.

**Kalit so‘zlar:** Inson, qaror, temperament, xolerik, sangvinik, flegmatik, melanxolik, xarakter, komform, psixotip, jamiyat, muammo, so‘z, individ, manfaat, guruh, jamoa, shaxs, boshqaruv, axborot, fikrlash, malaka, hodisa va boshqalar.

## QUICK DECISION MAKING IS AN IMPORTANT REQUIREMENT OF THE PRESENT TIME

**Abstract:** the purpose of the three articles is a small tool that helps our youth today to think in a broad framework, how to find the right solution to the problem. More attention should be paid to empirical processes such as attention, intuition, memory, path, thinking. through this process each person feels the world deeper.

**Keywords:** Man, decision, temperament, choleric, sanguine, phlegmatic, melancholic, character, conform, psychotype, society, problem, word, individual, interest, group, team, person, management, information, thinking, skill , event, etc.

Har bir inson irqi, millati, boy - kambag‘alligiga, ayol yoki erkakligiga qaramasdan doimo tanlash imkoniyatiga ega hisoblanadi. Individ shaxs bo‘lib rivojlangan sari malaka, ko‘nikma, tajribalari oshadi. Shu tufayli ham qarorlar qabul qilish osonroq kechadi. Ammo bu degani doimo to‘gri qaror qabul qiladi degani emas. Chunki har bir inson ham ma’lum bir paytlarda adashadi. Lekin uzoq muddat davomida olingan tajriba, uzoq muddatli mehnat orqali ham to‘gri qarorlar chiqara oladi.

Ilmiy nuqtai nazardan olib qaralganda qaror qabul qilish uchun har bir shaxs individual xususiyatlari orqali ham yondashiladi ya’ni bunda insonning xarakter tiplari va temperamentlari ham alohida muhim vazifani bajaradi. Bolalarda tezkor va aniq qaror qabul qilishga bo‘lgan sifatni shakllantirishda ayniqsa konform psixotipidagi bollarni oladigan bo‘lsak ularda tarbiyalashimiz kerak bo‘lgan tarafi ular qaltis vaziyatlarda nima qilishni bilmay qoladi. Bunda bolaga ota ona, yoki maktab psixologgi turli treninglar orqali vaziyatlarni tahlil qilishni oqilona yagona qarorni topishga bo‘lgan shijoatni shakllantiriladi. Temperament biz bilamizki Gippokrat ta’limoti bo‘yicha 4 turga bo‘linadi bular Xolerik, Sangvinik, flegmatik hamda melanxolik tiplari. Tezkor va aniq qaror qabul qilishda temperamentlarni o‘rni albatta o‘ziga hos.

Bu borada eng yetakchi o'rinda turuvchi tip bu Xolerik hisoblanib u tez va oqilona qaror qabul qiladi va maqsadi aniq shiddatli bo'lishi, boshlagan ishini ohiriga yetkazishi bilan ajralib turadi. Bu borada Sangvinik va melanxolik tiplarini biroz tarbiyalash lozim chunki Sangviniklarda boshlagan ishini ohiriga yetkazmaslik jihatni bo'lsa, melanxoliklarda qaror qabul qilishda ikkilanishlar, o'ziga ishonchszilik, asossiz bezovtaliklar kuzatildi. Flegmatik tipi kuchli irodali shaxslar hisoblanib ularda qaror qabul qilish xolerikka nisbatan biroz kechiksada mulohazali, aniq maqsad bilan ko'p o'ylab to'g'ri qaror qabul qiluvch hisoblanadilar.

Hozirgi kunda respublikamizda ham insonlar fikr erkinligiga hamda tanlash huquqiga ega hisoblanadi. Misol uchun mamalakatimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 29-modda VII bobda ham belgilab qo'yilgan. **Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitusiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir.** Ya'ni bunda har bir insonlar qonun doirasida mustaqil qaror qabul qilish mumkin ekanligi faqatgina belgilangan tartibda guruhiy, jamoaviy, yakka tartibda qonunlarni buzmagan holda oz fikrini, qarorini bildira olishi belgilab qo'yilgan.

**V. Terelyanskiyning** fikricha "Qaror qabul qilish hodisasi bu turli sharoitlarda qarorlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirishning uzlucksiz tizimidir" deb ta'kidlab o'tgan. Bunga ko'ra barcha shaxslar kun davomida ko'plab qarorlar, fikrlar ilgari suradi. Ma'lum bir vaziyatdan chiqib ketish, ba'zi bir muammolarni hal qilish, biron bir narsa, buyumlanib sotib olishda ham barcha insonlar albatta mana shu vaziyatga duch keladi. Ya'ni manfaatli qaror qabul qilishga to'g'ri keladi. Har bir shaxs borki kun davomida biror fikr yoki qaror qabul qiladi bu hayot mazmuni hisoblanadi.

**V. V. Redko** fikriga ko'ra inson tomonidan qabul qilingan turli qarorlar quyidagi funksiyalarni bajaradi: "1) Yo'naltiruvchi ya'ni tashkiliy qarorlar faoliyatining maqsad va vazifalarini belgilaydi". Bu fikrga ko'ra har bir chiqarilayotgan fikr yoki qaror insonlarni qandaydir maqsadga qaratilib yo'naltiriladi. Har bir shaxsga qaror va buyruqlar orqali oz vazifalarini bo'lib beriladi. 2) "Tashlik etuvchi va

muvofiglashtiruvchi qarorlar ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlari tartibini belgilaydi”. Ya’ni bunda guruhda, jamoada tabiyki har xil harakterga ega shaxslar yig‘ilgan bo‘ldi. Shu sababli ham qarorlar jamiyatda insonlarni tartibga solib, boshqarib turadi. Shuning uchun ham jamiyat, guruhdagilar doimo tartibli, berilgan vazifalarni vaqtida bajariladi. 3) “Moslashuvchan: bu darajada rahbar bir munkha qiyin bo‘ladi chunki u eski yondashuvlardan voz kechib yangicha ijodiy qaror qabul qilish lozim. Ayni paytda rahbar muvaffaqiyati uning shaxsiy tashabbusi bilan amalga oshadi”. Shunday vaziyatlar bo‘ladiki qaror qabul qilinganda bir sharoitdan boshqa sharoitga tushib qolganda moslashib keta olishi kerak bo‘ladi. Shu paytda qaror chiqarayotgan shaxslar to‘gri va kerakli qaror, fikr yuritishi lozim. 4) “Innovatsion: Rahbar bunday vaziyatda yangiliklarni joriy etish bilan bog‘liq qarorlar ancha murakkab hisoblanadi. Noaniq vaziyatda yangicha yondashuv usullaridan, boshqa mutaxassislarning ijodiy g‘oyalaridan fodalana olishi talab qilinadi.” Ya’ni har bir rahbar insonlar kreativ fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi talab qilinadi. Yangiliklardan doimo xabardor bo‘lib borishi erkin fikrlay olishi, jamoani boshqara olish, guruhdagi barcha insonlarga g‘amxo‘lik qilishi qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak. Har bir insonga fikrlash, so‘zlash, buyruq berish, buyruqni bajarish, qaror qabul qilish imkoniyati berilgan. Undan to‘gri va odilona foydalanishimiz kerak.

## XULOSA

Har bir shaxs jamiyatda yashar ekan voqeа va hodisalarни tafakkur operatsiyalari bilan analiz sintez qiladi, taqqoslaydi va operatsiyalari orqali ko‘rib qaror qabul qiladi hukm va hulosa qiladi. Shuning uchun ham kerakli, foydali, manfaatli maslahat va fikr, qarorlarni chiqarish uchun ko‘plab kitob va gazetalar, maqolalar o‘qish kerak bo‘ladi. Eng asosiysi esa inson qaysi kasbda ishlamasin o‘sha kasbga oid ko‘plab kitoblar, qonunlar, olimlarning mulohazalarini, yozib qoldirgan asarlarini o‘rganib chiqish lozim. Hamda uzoq va mashaqqatli mehnat tajribalar asosida kerakli qarorlarni chiqarishni bilib olishimiz mumkin. Har bir chiqarilgan to‘gri fikr orqasida albatta juda katta mehnat, ta’lim, yotadi deb hisoblayman. Demak aniq tezkor qaror qabul qilish ko‘p jihatdan o‘zimizga bo‘gliq bo‘lib teran fikr g‘oyali bo‘lishga intilmog‘imiz lozim

Zero, SHavkat Mirziyoyev Miromonivichning "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy go'yamizning poyevoridir." kitobida "Biz boshqalarga ergashuvchi emas, aksincha, doimo ergashtiruvchi xalq bo'lib kelganmiz" fikrlarini dasturil amal qilib olsak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 29 – modda VII bob Shaxsiy huquq va erkinliklari
- 2.Терелянский П.В.Теория и методы принятия решений:учеб,пособие/П.В.Терелянский;ВолгГТУ.-Волгоград,2016.-С.34..
- 3.Редъко В.В.Психологични механизми прийняття ришенъ у побутовий діяльності:Автореф.дис...канд.психол наук:19.00.01/В.В.Редъко.-К2003.-С58
- 4.SHavkat Mirziyoyev Miromonivichning "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy go'yamizning poyevoridir.
5. <https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/401>
- 6.<https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/401/383>
7. <https://sciencebox.uz/index.php/jars/article/view/591>

